# Surxondaryo viloyati statistika boshqarmasi

## 2018 yilning yanvar-oktyabr oylarida Surxondaryo viloyatining sanoat ishlab chiqarishi

**RAQAMLAR:**

- Sanoat ishlab chiqarish hajmi **2070,3 mlrd.so'mni**, o'sish sur'ati - **115,8 % ni** tashkil etdi;
- Iste'mol tovarlari ishlab chiqarishning o'sish sur'ati **-102,5 % ni** tashkil etdi;
- Iste'mol tovarlarning jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi - **43,4 % ni** tashkil etdi;
- Iste'mol tovarlarida oziq-ovqat mahsulotlarining ulushi – **71,6 % ni**, nooziq-ovqat mahsulot-larining ulushi – **25,5 % ni** tashkil qildi.

Dastlabki ma'lumotlar bo'iycha 2018 yilning yanvar-oktyabr oylarida viloyat korxonalari tomonidan 2070,3 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati 115,8 % ni tashkil etdi.

Jami sanoat ishlab chiqarish hajmi o'shishining asosiy omili bo'lib, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatida ishlab chiqarish hajmining - 15,2 % ga (jami sanoat ishlab chiqarish hajmi o'sishiga qo'shgan hissasi 87,0 punkt), tog'- kon sanoati va ochiq konlarni ishlashning – 19,1 % ga (o'sishga qo'shgan hissasi 5,3 punkt), elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni kondittsiyalashning - 19,9 % ga (o'sishga qo'shgan hissasi 6,0 punkt) va suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilishning – 25,1 % ga (o'sishga qo'shgan hissasi 1,7 punkt) o'sishi hisoblanadi.

**2018 yilning yanvar-oktyabr oylarida asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish tarkibi, foizda.**



***Tog'- kon sanoati va ochiq konlarni ishlash.***

Tog' - kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2018 yilning yanvar-oktyabr oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 126,5 mlrd. so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 5,3 % ni tashkil etdi.

Tog'-kon sanoatida ishlab chiqarilgan mahsulotlar turi bo'yicha tog'-kon sanoatining boshqa faoliyati qariyb o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan – 1,6 baravarga, ko'mir va lignit qazib olish hajmi – 1,5 baravarga, xom neft va tabiiy gaz qazib olish – 1,1 % ga va tog'-kon sanoati sohasidagi texnik xizmatlar – 0,9 % ga va oshgan.

***Yanvar-oktyabr oylarida tog'- kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish***

| 2017 yilda ishlab chiqarilgan | Tog'- kon sanoati va ochiq konlarni ishlash mahsulotlari | 2018 yilda ishlab chiqarilgan | O'sish sur'ati, % |
|---|---|---|---|
| | **Toshko'mir, ming t.** | | |
| 97,0 |  | 145,6 | 150,1 |
| | **Xom neft, ming t.** | | |
| 71,8 |  | 71,0 | 98,9 |
| | **Shag'al, ming t.** | | |
| 12,6 |  | 33,2 | 2,6m |
| | **Osh tuzi, ming t.** | | |
| 24,6 |  | 5,1 | 20,5 |

***Ishlab chiqaradigan sanoat (qayta ishlash sanoati).***

2018 yilning yanvar-oktyabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi – 2061,4 mlrd. so'mni va o'tgan yilga nisbatan 115,2 % foizni tashkil etdi.

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 33,7 % ni (2017 yil yanvar - oktyabr oylarida - 38,7 %), tekstil mahsulotlari ishlab chiqarish 26,5 % ni (18,8 %), koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 13,3 % ni (12,1 %) va boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish 8,9 %ni (9,3 %) tashkil etdi.

**Yanvar-oktyabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoat tarkibi**




O'z navbatida ishlab chiqaradigan sanoatda o'tgan yilning mos davriga nisbatan paxta xom ashyosi – 1,8 martaga, qurilish uchun qorishmalar va aralashmalar – 1,8 martagaga, sabzavotlar (kartoshkadan tashqari) – 1,2 martaga, makaron mahsulotlari qariyb – 2,0 martaga, beton – 2,1 martaga, paxta yog'i – 1,3 martaga, neft bitumi - 4,4 % ga oshgan. Shu bilan birga xom neft, tuz, bug'doy uni, non (600 gr), aroq, vino, medikamentlar, gazoyli (dizel yoqilg'i), mazut ishlab chiqarish hajmining o'tgan yilning mos davriga nisbatan pasayganligini kuzatish mumkin.

***Yanvar-oktyabr oylarida Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish***

| 2017 yilda ishlab chiqarilgan | Ishlab chiqaradigan sanoat mahsulotlari | 2018 yilda ishlab chiqarilgan | O'sish sur'ati, % |
|---|---|---|---|
| | **Paxta tolasi, ming t.** | | |
| 27,3 |  | 49,6 | 1,8m ↑ |
| | **Paxta yog'i (tozalangan), ming t.** | | |
| 7,3 |  | 9,2 | 1,8m ↑ |
| | **Dizel yoqilg'isi, ming t.** | | |
| 11,6 |  | 9,9 | 85,5 ↓ |
| | **Un, t.** | | |
| 88,0 |  | 82,6 | 93,9 ↓ |
| | **Aroq, ming l.** | | |
| 1808,5 |  | 1507,8 | 83,4 ↓ |
| | **Beton, ming t.** | | |
| 47,0 |  | 98,5 | 2,1m ↑ |



***Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni kondittsiyalash.***

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni kondittsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 142,6 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 6,0 % ni) tashkil etdi.

2018 yilning yanvar-oktyabr oylarida sanoatning mazkur tarmog'ida boshqa bug' va issiq suv hajmining o'tgan yilning mos davriga nisbatan (92,7 %), gazsimon yonilg'ini quvurlar orqali taqsimlash bo'yicha xizmatlar hajmining (80,9 %) pasayganligi kuzatildi.

***Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish.***



Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 39,8 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 1,7 % ni) tashkil etdi.

O'tgan yilning mos davriga nisbatan suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash xizmatlarning – 33,9 % ga, tarkibida qora metallar bo'lgan ikkilamchi xom ashyoni – 3,1 % ga oshganligi kuzatildi, axlatxonalarda xavfsiz chiqindilarni yo'qotish bo'yicha xizmatlar (7,2 mlrd so'm) yo'lga qo'yildi. Oqava suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar hajmining (89,9 %) ga pasayganligi kuzatildi.

***Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish.***

Tayyor mahsulotlar turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida iste'mol tovarlar ishlab chiqarish hajmi 1032,4 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2017 yilning yanvar-oktyabr oylariga nisbatan 2,5 % ga o'sishi ta'minladi. Jami sanoatdagi ulushi esa 43,4 % ni tashkil etdi.

***2018 yilning yanvar-oktyabr oylarida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari***




2017 yilning yanvar-oktyabr oylariga nisbatan iste'mol tovarlari tarkibida oziq-ovqat tovarlari ishlab chiqarish ulushining 71,3 % dan 2018 yilning yanvar-oktyabr oylarida 71,6 % ga, nooziq-ovqat tovarlari ishlab chiqarish ulushining 25,1 % dan 25,5 % ga oshganligi kuzatildi.

**Surxondaryo viloyati statistika boshqarmasining**
**Sanoat statistikasi bo'limi**

Nashr uchun mas'ul: Z.Turanazarov

Aloqa telefoni: *(0371) 230-80-46*
*(0376) 223-07-24*